



MUNIS VA OGAHIY: ADABIY AN'ANA VA IJODIY USLUBNING MUSHTARAKLIGI.

Turg'unboyeva Dilrabo

Farg'ona davlat universiteti

filologiya fakulteti

o'zbek tili yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm adabiy maktabining ikki yirik vakili — Muhammad Rizo Munis va Muhammad Rizo Ogahiy ijodining adabiy an'ana hamda ijodiy uslub nuqtai nazaridan mushtarak jihatlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki ijodkorning mumtoz adabiyot taraqqiyotidagi o'rni, ular davom ettirgan Navoiy an'analari, tasavvufiy-falsafiy qarashlari, tarixiy va she'riy merosining umumiy tamoyillari ochib beriladi. Shuningdek, Munis va Ogahiy ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari, adolat va komillik tushunchalarining badiiy ifodalanish xususiyatlari qiyosiy yondashuv asosida yoritiladi. Maqolada har ikki adibning tarixnavislikka qo'shgan hissasi, tarjima maktabining shakllanishidagi o'rni va ularning ijodiy uslublarini birlashtirib turuvchi omillar haqida ilmiy xulosalar keltiriladi. Tadqiqot natijalari Munis va Ogahiy merosining o'zbek adabiyoti tarixidagi uzviylik va davomiylik tamoyillarini namoyon etishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Munis, Ogahiy, Xorazm adabiyoti, adabiy an'ana, ijodiy uslub, mumtoz she'riyat, tarixnavislik, ma'rifatparvarlik, she'riyat, qiyosiy tahlil, tarjima maktabi.

Kirish



Xorazm adabiy muhiti o'zbek adabiyoti tarixida alohida ahamiyatga ega bo'lib, ushbu maktabning shakllanishi va taraqqiyotida Munis va Ogahiy ijodining o'rni beqiyosdir. Ular nafaqat shoir, balki tarixchi, tarjimon, davlat arbobi sifatida ham faoliyat yuritgan. Ularning ijodiy merosi XIX asr o'zbek adabiyotining taraqqiy yo'nalishlarini belgilab bergani bilan ahamiyatlidir. Mazkur maqolada ikki ijodkorning adabiy merosi qiyoslab tahlil qilinadi hamda ularning ijoddagi umumiylik va farqlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Munis va Ogahiy ijodining asosiy yo'nalishlaridan biri tarixnavislikdir. Munisning «Firdavs ul-iqbol» asari Xorazmning 18-19- asrlardagi siyosiy, ijtimoiy hayotini yoritishga bag'ishlangan bo'lib, unda voqealarning aniq yilma-yil bayoni beriladi. Bu asar Xiva xonligining tarixini o'rganishda eng muhim manba hisoblanadi. Ogahiy esa ustozining uslubini davom ettirib, tarixnavislikni yangi bosqichga ko'taradi.

Munisning to'liq ismi Muhammad Rizo Erniyozbek o'g'li Munis hisoblanadi. Uning tug'ilgan yillari manbalarda 1778-1829 yil deb aytib o'tilgan. Muhammad Erniyozbek o'g'li Munis Xorazmda tavallud topgan va dafn etilgan joyi ham Xivaning Ko'hna Ark hududida joylashgan. Munis Xorazmning yirik ziyolilaridan biri bo'lib, Xiva xonlari Eltuzarxon (1804–1806) va Muhammad Rahimxon I (1806–1825)lar davrida saroyda yuqori mansab egallagan. Uning boshqaruv ishlarida qatnashgani, diplomatik vazifalarni bajargani haqidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarda uchraydi. Munis Xorazmda ma'rifat, adolat, ilm-fan g'oyalarini targ'ib qilgan, yoshlarga ilm olishni vasiyat qilgan ziyoli sifatida tanilgan.

Munisning asarlari o'ziga xos tarzda o'z davrining siyosiy masalalari, tarbiyaviy ruhda yozilgan:

1) “Firdavs ul-iqbol” - Xiva xonligi tarixiga bag'ishlangan yirik asar bo'lib, 1800–1810-yillar voqealari yoritilgan. Munis bu asarni Muhammad



Rahimxon I topshirig'iga ko'ra yozgan. Uning o'limidan so'ng asar Ogahiy tomonidan davom ettirilgan. Asarda siyosiy voqealar, iqtisodiy ahvol, harbiy yurishlar, davlat boshqaruvi kabi masalalar ilmiy uslubda bayon qilingan.

2) She'riy devon - Munis o'zbek mumtoz she'riyatining kamolot bosqichi vakillaridan biri. She'rlari tasavvufiy mazmun, falsafiy chuqurlik, insoniylik g'oyalari bilan to'la. G'azallarining badiiy saviyasi yuqori, til ravon va nafis tarzida yozilgan.

Munis fors-tojik adabiyotidan ayrim axloqiy va tarixiy matnlarni tarjima qilgan. Ammo u tarjima sohasida Ogahiy darajasida keng faoliyat yuritmagan.

Muhammad Rizo Ogahiy. U 1809-1874 yillarda yashab ijod etgan. Muhammad Rizo Ogahiy Munisning jiyani va eng yaqin shogirdi bo'lgan. U ham Munis singari shoir, tarixchi, tarjimon, davlat hodimi bo'lgan. Hayoti va faoliyati haqida qisqacha ma'lumotlar keltirilgan. Ogahiy Xorazm ma'rifatparvarlik an'anasini keng rivojlantirgan ulug' adibdir. U yoshligidan Munis tarbiyasida bo'lgan, tarixnavislik va she'riyat ilmini bevosita undan o'rgangan. Munis vafotidan so'ng ruhiyati cho'kkani bilan, u ustozining ishini davom ettirishga bel bog'lab, tarixiy asarni nihoyasiga yetkazgan.

Tarixiy asarlari Sharq tarixnavisligi merosida noyob o'rin tutadi. "Riyoziy ud-davla", "Zubdat ut-tavorix", "Gulshan-ul davlat", "Jam'e ul-voqeot", "Iqboliy", "Firdavs ul-iqbol". Bu asarlar Xiva xonligining XVIII–XIX asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotini hujjat asosida bayon qilgani bilan qimmatlidir. 20 dan ortiq asarlarni tarjima qilgan. Ogahiy o'zbek adabiy tarjima maktabining asoschisi hisoblanadi. U Sa'diy Sheroziy, Abdurahmon Jomiy, Nizomiy Ganjaviy, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Attor kabi yozuvchilarning asarlarini tarjima qilgan. Tarjimalari til jihatdan ravon, xalq uchun tushunarli, juda sodda bayon qilingan. Ogahiyning g'azallari sodda va xalqchil ruhda



yozilgan. Unda vatanparvarlik, adolat, ilm-ma'rifat, axloq, muhabbat mavzulari keng yoritilgan.

Munis va Ogahiyning bir-biriga o'xshash jihatlari: har ikkisi Xiva xonligi tarixini yozma manba sifatida hujjatlashtirgan. Har ikkisi ham tarixiy bayonlarda xolislikka intiladi, asarlarida voqealar ketma-ketligi aniq beriladi. Asarlarida sharq tarixnavisligi an'analariга amal qilishi ham bu ikki ijodkorning o'xshash tomonlariga nisbat beradi.

Farqli jihatlari esa Munis tarixiy asarlarda ko'proq umumiy siyosiy jarayonlarni yoritgan bo'lsa, Ogahiy voqealarni yanada detallashtirib, iqtisodiy va ijtimoiy masalalarga ham e'tibor qaratgan. Ogahiyning tarixchi sifatidagi tajribasi kengroq bo'lib, uning asarlari fakt va sanalarga boyligi bilan ajralib turadi

Munis va Ogahiy she'riy merosida o'zbek mumtoz adabiyoti an'analari, xususan, Navoiy maktabi ta'siri yaqqol seziladi. Ular g'azal, qasida, ruboiy kabi janrlarda ijod qilgan. Ijod sohasidagi o'xshashliklari: Har ikkisi tasavvufiy va ma'rifiy g'oyalarni kuylaydi. She'riyatlarida insonparvarlik, adolat, komillikka intilish g'oyalari ustuvor. Til jihatidan nafis, ohangdor, mumtoz uslubga xos leksik birliklardan keng foydalanilgan. Farqlari esa: Munisning she'riy uslubida ko'proq falsafiy, lirizm kuchli bo'lsa, Ogahiy she'rlarida voqelik, hayotiylik va ijtimoiy mazmun yorqinroq bo'ladi. Ogahiy badiiy tarjimon sifatida ham mashhur bo'lib, uning she'rlari til jihatidan sodda, xalqchil ruhga yaqin.

Munis Sharq adabiyoti namunalarini tarjima qilgan bo'lsa-da, ogahiy darajasidagi keng qamrovli tarjima merosini yaratmagan. Ogahiy esa 20 dan ortiq asarni fors va arab tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Uning tarjimalari o'zbek adabiyotida adabiy tarjima maktabining shakllanishiga asos bo'ldi.

Xulosa.



Munis va Ogahiy ijodi Xorazm adabiy muhitining yuksak namunasi hisoblanadi. Ularning badiiy qarashlari, tarjimonlik mahorati va tarixnavislik faoliyati o‘zaro mushtaraklikka ega bo‘lib, bir-birini boyitgan. Munis asos solgan ilmiy-adabiy an‘analari Ogahiy tomonidan takomillashtirildi, kengaytirildi va yangi bosqichga ko‘tarildi. Shu bois ularning ijodi nafaqat davr adabiy jarayonining mahsuli, balki o‘zbek adabiy-badiiy tafakkurining uzviy davomiyligini ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Munis Xorazmiy. Firdavs ul-iqbol. – Toshkent: Fan, 1991.
- Ogahiy. Riyoz ud-davla. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1974.
- B.Karimov. Xorazm adabiy maktabi va uning namoyandalari. – Toshkent, 2005.
- A.Rajabov. O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – Toshkent: Universitet, 2010.
- M.Alimova. Munis va Ogahiy ijodida tarixnavislik an‘analari. – Adabiyotshunoslik jurnali, 2018.
- Q.Yo‘ldoshev. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997.

